



## NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 12-sentabr

139-5-70-Q/24

Konimex tuman hokimiligi

**Tuman mudofaa ishlari bo‘limida umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta’lim muassasalaridagi 2024/25-o‘quv yili bitiruvchi sinf o‘g‘il bolalarini 2024-yilning oktabr-noyabr oylarida chaqiruv uchastkasida qayd etish (ro‘yxatga olish) ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari hamda Navoiy viloyati hokimining 2024-yil 7-sentabrdagi 247-5-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasiga muvofiq, tuman mudofaa ishlari bo‘limida umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta’lim muassasalaridagi 2024/25-o‘quv yili bitiruvchi sinf o‘g‘il bolalarini chaqiruv uchastkalarida qayd etish, ularni harbiy ro‘yxatga olish, ularning harbiy xizmatga qay darajada yaroqli ekanligini, umumta’lim va jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash ishlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida, tuman mudofaa ishlari bo‘limining 2024-yil 9-sentabrdagi 482-sonli xatini inobatga olib,

### **QAROR QILAMAN:**

1.Navoiy viloyati hokimining 2024-yil 7-sentabrdagi 247-5-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 18-moddasida quyidagilar:

fuqarolarni qayd etish tuman mudofaa ishlari organlari huzurida tashkil etiladigan chaqiruv uchastkasida amalga oshirilishi va ro‘yxatga olinayotganlarning turar joylarida o‘tkazilishi;

fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasasidagi oxirgi o‘quv yilining oktabr-noyabr oylarida amalga oshirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2024-yilning oktabr-noyabr oylarida tuman mudofaa ishlari bo‘limi chaqiruv uchastkasida 2024/2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta’lim muassasalarini bitirayotgan fuqarolarni harbiy ro‘yxatga olish ishlarini tashkil qilinsin.

4.Tuman mudofaa ishlari bo‘limi (A.Baltayev), tuman tibbiyot birlashmasi (B.Imamkulov) bilan birgalikda:

joriy yilning 20-sentabriga qadar fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish bo‘yicha tuman fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish komissiyasi tuzilishi;

Konimex tumanida fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

Konimex tumanida fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish komissiyasi zaxira tarkibi 2-ilovaga;

chaqiruv uchastkasida qayd etiladigan fuqarolarni sifatli tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun komissiya tarkibiga tegishli ixtisoslikka ega bo‘lgan yuqori malakali vrach-mutaxassislarni hamda o‘rta tibbiy xodimlarni jalb etilishini, amaldagi qonunchilik hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda ularning ish joylari va o‘rtacha ish haqlari saqlab qolinishini hamda faoliyati ustidan nazorat olib borilishini ta‘minlasin.

5.Tuman tibbiyot birlashmasi (B.Imamkulov) chaqiruv uchastkasidagi tibbiy komissiyasining yo‘llanmalariga muvofiq, yoshlarni tegishli tibbiyot muassasasida zamonaviy tibbiy-texnika vositalarini qo‘llagan holda mukammal tibbiy tekshirilishi va davolanishlarini tashkil etsin.

6.Tuman hokimi o‘rinbosari (M.Tulegenov)ga:

fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish, harbiy ro‘yxatga olish ishlarini sifatli tashkil etish uchun hududiy mudofaa ishlari bo‘limiga avtotransport vositalari va texnik xodimlarni ajratib berish;

umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta‘lim muassasalari, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tashkilot va idoralar tomonidan chaqiruv uchastkalarida qayd etilishi lozim bo‘lgan fuqarolar ro‘yxatlarini hududiy mudofaa ishlari bo‘limiga taqdim etilishini hamda chaqiruv uchastkalariga kelishlari bo‘yicha xabardor qilish;

joriy yilning oktabr-noyabr oylarida tuman chaqiruv uchastkasini yetarli darajada isitilishi va elektr energiyasi bilan ta‘minlash ishlarini tashkil qilsin.

7.Tuman mudofaa ishlari bo‘limi (A.Baltayev)ga:

2024-yil oktabr-noyabr oylarida umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus va professional ta‘lim muassasalarini bitirayotgan fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish ishlarini o‘tkazilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon berish;

tuman mudofaa ishlari bo‘limining chaqiruv uchastkasida fuqarolarni qayd etish va harbiy ro‘yxatga olish ishlarini sifatli o‘tkazilishini muntazam ravishda nazorat qilish;

amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oy yakuni bilan tuman hokimligiga axborot taqdim etib borish topshirilsin.

8.Tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (I.Sattorov)ga:

chaqiruv uchastkasida tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun chaqiriluvchilar yig‘ilgan vaqtda turli yuqumli kasalliklarni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda oldini olish maqsadida, chaqiruv uchastkasida dezinfeksiya ishlarini tashkil etish ishlarini amalga oshirsin.

9.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Tulegenov va tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i A.Baltayev zimmasiga yuklansin.

**Konimex tumani hokimi**



**RO‘ZIYEV  
RUSLAN.NASIROVICH**

Konimex tuman hokimining  
2024-yil 12-sentabrdagi  
139-5-70-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Konimex tumanida fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish  
KOMISSIYASI TARKIBI**

A.Baltayev	tuman Mudofaa ishlari bulimi boshligi, komissiya raisi
Sh.Pulatova	Komissiya mas`ul kotiba
<b>A ` Z O L A R I</b>	
A.Qurbonov	Xududiy tibbiy komissiya katta vrachi
B.Nekov	Terapevt
N.Xudoyqulov	Okulist
A.Baratov	Nevrolog
U.G`aniyev	Psixiatr
N.Shomurotova	Dermatolog
M.Xamdamova	Stomatolog
G.Yakubova	Otorinolaringolog
Q.Nurmamatov	Jarrox
A.Norqulov	Rentgenolog
<b>Zaxiradagi tarkib</b>	
B.Nekov	Xududiy tibbiy komissiya katta vrachi
A.Qurbonov	Terapevt
Viloyatdan	Okulist
N.Xasanov	Nevrolog
Viloyatdan	Psixiatr
B.Kenjaye	Dermatolog
A.Quchqorov	Stomatolog
F.Raimova	Otorinolaringolog
M.Qaxxorov	Jarrox
Viloyatdan	Rentgenolog
A. Satorrov	UTT (UZI) vrachi
S.Mavlonov	Endoskopist

Konimex tuman hokimining  
2024-yil 12-sentabrdagi  
139-5-70-Q/24-son qaroriga  
2-ilova

**Tuman Mudofaa ishlari bo'limining chaqiruv maskaniga texnik xodimlar  
ajratadigan korxonalar, tashkilot va muassasalar**

**R U Y X A T I**

t/r	Korxonalar, tashkilot va muassasalar	Texnik xizmatchilar (xodimlar) soni	Ajratilgan muddat
1	TMvaMTBga qarashli 2 sonli maktabi	1	01.10.24 dan 30.11.24gacha
2	Kasb xunar maktabi	1	01.10.24 dan 30.11.24gacha
3	TMvaMTBga qarashli 7 sonli maktabi	1	01.10.24 dan 30.11.24gacha